

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.FIL.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**BERDIMURATOVA LAZZAT DUYSENOVNA**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM HUDUDI  
TOPONIMLARINING TARIXIY-LINGVISTIK TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Jizzax – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in  
philology sciences**

**Berdimuratova Lazzat Duysenovna**

О‘zbekiston Respublikasi Qizilqum hududi toponimlarining tarixiy-lingvistik tadqiqi ..... 3

**Berdimuradova Lazzat Duisenovna**

Historical– linguistic research of toponyms of the Kyzylkum region of the Republic of Uzbekistan ..... 27

**Бердимуратова Лаззат Дуйсеновна**

Историко-лингвистическое исследование топонимов Кызылкумского региона Республики Узбекистан ..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works  
Список опубликованных работ ..... 55

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.FIL.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**BERDIMURATOVA LAZZAT DUYSENOVNA**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM HUDUDI  
TOPONIMLARINING TARIXIY-LINGVISTIK TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Jizzax – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2814 bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasi (www.jdpu.uz)da va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali manzillariga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Mingbayev Nurlan Jakipovich  
filologiya fanlari doktori

**Rasmiy opponentlar:** Turopov Abduraim Malikovich  
filologiya fanlari doktori, professor  
Temirov Sherali Abduxalilovich  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "29" noyabr soat 12.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sharof Rashidov shoh ko'chasi, 4. Tel.: (+99872) 226-13-57, 226-21-73, faks: (+99872) 226-46-56; e-mail:jspi@umail.uz. Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o'quv bino, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya va avtoreferat bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№14 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sharof Rashidov shoh ko'chasi, 4. Tel.: (+99872) 226-13-57, 226-21-73, faks: (+99872) 226-46-56).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "17" noyabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil "17" noyabr dagi 21 raqamli reyestr bayonnomasi).



U.A.Jumanazarov  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.fanlari doktori,

M.Y.Kadjimusayeva  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash a'zosi, filol.fanlari doktori (PhD),

U.Qosimov  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi filol.fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ilm-fanida toponimlar masalasi tilshunoslik, geografiya, tarix, etnografiya, sotsiologiya hamda lingvokulturologiya kabi fanlar kesishgan nuqtada joylashgan, noyob va ko‘p qatlamli lisoniy birlik sifatida o‘rganilmoqda. Toponimlar o‘zida boy tarixiy, milliy-madaniy hamda ijtimoiy axborotlarni mujassam etgani bois, ularni tizimli o‘rganish onomastika fanining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Bugungi kunda polisonim, komonim, gidronim, agronim kabi toponimik birliklarning leksik-semantik, nominativ, derivatsion va struktur xususiyatlarini tadqiq qilishga doir keng ko‘lamli amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Ayni paytda globallashuv va fanlararo integratsiya sharoitida toponimlar tizimini nominatsion-motivatsion, etimologik, struktur, areal, qiyosiy-tarixiy, tipologik va sotsiolingvistik hamda lingvokulturologik aspektlarda kompleks tahlil qilish masalasi dolzarb ilmiy masalalardan biriga aylanmoqda.

Dunyo onomastikasida mikro va makro ko‘lamdagi toponimik birliklarni tarixiy-lingvistik, shuningdek, yangi nazariy paradigmalarda o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, oykonim, gidronim, oronim singari toponimlarning ichki tarkibiy tuzilishini lingvistik model va yondashuvlar asosida tahlil etish xalqning ijtimoiy hayoti, etnik tarkibi, madaniy taraqqiyoti va tarixiy xotirasini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu turdagi tadqiqotlar oronimlar tizimi hamda uning boshqa toponimik birliklar bilan o‘zaro munosabati, shuningdek, ular joylashgan hududlarning dialektologik, geografik, tarixiy, etnografik va ekologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shu ma’noda, oronimlar orqali tog‘ turizmi va geodeziya, flora va fauna resurslari bilan bog‘liq qator jihatlarni ham tadqiq etish imkoniyati tug‘iladi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda toponimik siyosat barqarorlik va izchillik bilan amalga oshirilayotgani, zamonaviy ilmiy paradigmalarga asoslangan holda olib borilayotgani milliy tilshunoslik taraqqiyotida muhim burilish yasamoqda. Xususan, toponimik nomlarning tizimli ravishda o‘rganilishi va ularning tarixiy-lingvistik asoslarini aniqlash bo‘yicha olib borilayotgan izlanishlar zamonaviy til siyosatining tarkibiy qismi sifatida milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash va milliy g‘ururni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. “Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim”<sup>1</sup>. Bu borada Navoiy viloyati Qizilqum hududi toponimlarining tarixiy-lingvistik, nominatsion-motivatsion, etimologik, derivatsion xususiyatlarini tadqiq etish, shu asosida o‘zbek toponimikasini ilmiy-nazariy qarashlar va amaliy talqinlar bilan boyitish zarurat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ–2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 28-iyuldagi PQ–3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarorlari, 2019-yil

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 22.

21-oktabrdagi PF–5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF–6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF–6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023-yil 12-sentabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari ma‘lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida H.A.Smit, A.L.Dauzat, G.J.Kopley, G.V.Lemon, V.Pizani kabi olimlarning ilmiy izlanishlari toponimikaning mustaqil fan sifatida shakllanishida muhim nazariy asos va metodologik yo‘nalishlarni belgilab berdi. Ularning tadqiqotlari toponimik tadqiqotlar tamoyillarini shakllantirishga katta hissa qo‘shib, sohaning ilmiy rivojlanishiga yo‘l ochdi.

Toponimik tadqiqotlarga qiziqish rus ilm-fanida XIX asrda paydo bo‘ldi va V.A.Vostokov, N.N.Nadejdina, V.V.Radlov, N.Y.Danilevskiy, Y.K.Grot va boshqalarning ishlarida namoyon etildi. Sobiq sovet hukumatining dastlabki yillarida bu qiziqish A.I.Sobolevskiy, V.P.Semyonov, Tyan-Shanskiy, V.B.Shostakovich, P.L.Mashtakova, N.Y.Marr, A.M.Selisev ishlarining dunyoga kelishiga sababchi bo‘ldi. Ikkinchi jahon urushidan keyin tarixiy va toponimik tavsifdagi yirik asarlar nashr etildi. Bu davrda toponimika fan sifatida shakllandi, uni tadqiq qilish usullari belgilandi, nazariy muammolar ishlab chiqildi. Ushbu olimlar asarlari turkiy toponimiyasi bo‘yicha ham bir qator tadqiqotlarning asosiga, jumladan, Sh.K.Qonkashbayev, A.A.Abduraxmanov, S.Ataniyazov, Sh.I.Yuzbashev, S.M.Molla-zade, S.Umurzakov asarlari diqqatga sazovor.

O‘zbekistonda onomastik birliklarni tarixiy-lisoniy, leksik-semantik, etnogeografik, sotsiopragmatik va lingvokulturologik mezonlar asosida tahlil qilish dolzarb ilmiy yo‘nalishga aylandi. Paradigmatik va sintagmatik yondashuvlar asosida toponimlarning shakllanishi, funksional-semantik taraqqiyoti va qo‘llanishi chuqur o‘rganilmoqda. XX asrning ikkinchi yarmi va mustaqillik davrida tilshunoslik, tarix va geografiya fanlari kesishmasida toponimika sohasida muhim tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu esa milliy toponimika ilmiy maktabining shakllanishiga hamda izchil izlanishlarning davom etishiga asos bo‘ldi. Jumladan, o‘zbek toponimikasi ilmiy nazariy asoslarining ishlab chiqilishida E.Begmatov, T.Nafasov, Sh.Qodirova, Y.Xujamberdiyev, O.S.Gubayeva, T.Rahmatov, J.Latipov, N.Oxunov, Q.Xurramov, L.Karimova, S.N.Nayimov, Z.Do‘simov, X.Xolmo‘minov, B.O‘rinboyev, A.Muhammadjonov, A.Otajonova, T.D.Enazarov, S.N.Ahmedov, Sh.A.Temirov, I.Xolmuratov, N.Ganiyev, U.Turdimurodov va

boshqa yetuk olimlarning hissasi beqiyosdir. Toponimika sohasida nazariy asoslarni shakllantirish, tarixiy-lingvistik va lingvonomastik tahlillarni chuqurlashtirish, lingvokulturologik va etimologik izlanishlarni rivojlantirish borasidagi ilmiy ishlarga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, bu yo'nalishda yaratilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar va dissertatsiyalar sohaning nazariy-metodologik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi<sup>2</sup>.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Ushbu dissertatsiya Navoiy davlat universitetining "O'zbek tili birliklarining funksional-pragmatik hamda semantik-uslubiy tahlili (sinxron va diaxron aspektda)" ilmiy yo'nalishiga muvofiq holda amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Qizilqum hududi onomastik birliklari tizimini kompleks tarzda tadqiq etish hamda umumturkiy toponimlarini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Qizilqum hududi toponimlarini fonetik, morfologik, sintaktik va leksik-semantik mezonlar asosida tasniflash, ularning grammatik tuzilmasini struktur-modellash orqali tahlil qilish;

toponimlar shakllanishiga ta'sir etuvchi nominatsion va derivatsion, ichki (lisoniy) va tashqi (ekstralingvistik) omillarni aniqlab, ularni tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstda izohlash;

---

<sup>2</sup>Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси: фил. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1965. – 26 б.; Нафасов Т. Қашқадарё область топонимлари: фил. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1968. – 301 б.; Кадырова Ш. М. Микропонимы Ташкента: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1970. – 28 с.; Хужамбердиев Я. Историко-этимологическое исследование топонимики Сурхандарьинской области Узбекской ССР: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1973. – 23 с.; Губаева О.С. Этнонимы в топонимии Ферганской долины: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1973. – 20 с.; Рахматов Т. Топонимия города Самарканда и его окрестностей: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1973. – 26 с.; Латипов Ж. Марғилон шаҳри ва унинг атрофи топонимияси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1975. – 219 б.; Охунов Н. Топонимия Кокандской группы районов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1978 – 23 с.; Хуррамов К. Узбекские географические термины, обозначающие рельеф Южного Узбекистана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 17 с.; Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. – Тошкент: Фан, 1982. – 96 б.; Найимов С.Н. Ойконимы Бухарской области: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 20 с.; Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 104 б.; Холмўминов Х. Бойсун район микропонимларининг лексик-семантик хусусиятлари. Ўзбек тилининг лексик-грамматик хусусиятлари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 1988. – 73-75 б.; Ўринбоев Б. Самарқанд вилояти топонимларининг изохи. – Самарқанд, 1997. – 202 б.; Муҳаммаджонов А. Жой номлари – тарихий манбадир. Илмий-амалий конференция докладлари тезислари. – Тошкент, 1994. – 15-17 б.; Отажонов А. Хоразм этнопонимлари. – Тошкент: Фан, 1997. – 94-111 б.; Эназаров Т.Д. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 8-13 б.; Ахмедов С.Н. Жиззах вилояти топонимларининг семантик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 20 б.; Темиров Ш.А. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019 – 35 б.; Холмуратов И.О. Жанубий Қорақалпоғистон ойконимларининг лисоний тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертацияси. – Бухоро, 2020. – 42 б.; Адизова Н. Бухоро тумани микропонимларининг лексик-семантик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2021. – 21 б.; Ганиев Н.У. Навоий вилояти Қизилтепа тумани топонимларининг этимологик ва когнитив тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Жиззах, 2022. – 54 б.; Turdimurodov U.S. Xatirchi tumani toponimlarining leksik-grammatik va etimologik tadqiqi. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 21 b.

hudud toponimlarini qiyosiy o'rganish orqali ularning o'zaro o'xshash va farqlanuvchi xususiyatlarini aniqlash, toponimik aniqlagichlarning funksional-semantik roli va yuklamasini o'rganish;

Qizilqum toponimlarini boshqa hududlar bilan qiyoslab, ularning umumiylik va farqlarini, tarkibiy birliklarning kelib chiqishini tahlil qilish;

toponimlarning xalq og'zaki ijodi va tarixiy voqealar bilan bog'liqligini aniqlash, ularning madaniy xotiradagi o'rnini baholash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida tarixiy va geografik manbalar, toponimik lug'atlar hamda ekspeditsion kuzatuvlar asosida aniqlangan Qizilqum hududiga oid 1136 ta toponimik birlik tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Qizilqum hududi toponimlarining nominatsion, motivatsion, semantik, strukturaviy va derivatsion xususiyatlarini qamrab oluvchi lisoniy hodisalar tizimi tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot mavzusini tadqiq etishda lingvistik tavsiflash, nominatsion-motivatsion, leksik-semantik, qiyosiy-tarixiy, etimologik, struktural, areal, tipologik-tasnifiy hamda sotsiolingvistik tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Qizilqum hududiga oid toponimlar semantik tasnifga ko'ra oykonim, gidronim, oronim, nekronim, agroonim va dromonim guruhlariga ajratilib, ularning nomlanishida urug' nomlari (Oyko'nek, Teleu, Keneges), antroponimlar (Xolmurodqazg'on, Utamurod, Eltoy), fitotoponimlar (Jing'ildi, Shengeldi, Ajiriqli) va zoonimlar (Qulanqoq, Ot quduq, Oqbo'ta) asosiy nominatsion omillar sifatida ishtirok etganligi asoslangan;

toponimlarning hosil bo'lishida kompozitsiya (Yassikechuv, Kampirsoy, Mingbuloq) va onomastik konversiya (Tepa, Koriz) usullari yetakchilik qilganligi, affiksatsiya (Ajiriqli, Qog'ali, Tuyachi) usulining nisbatan kam qo'llanilganligi aniqlangan;

“qishloq”, “ovul”, “rabot”, “quduq”, “buloq”, “soy”, “tog'”, “tepa”, “jar”, “bel” kabi aniqlagichlar semantik markaz sifatida toponimlarning shakllanishida faol ishtirok etganligi Xo'jaovul, Qumrabot, Qoraquduq, Oydinbuloq, Oqsoy, Bo'kantov, Uchtepa, Oqjar, Saribel toponimlari misolida dalillangan;

toponimlar tub, affiksli, qo'shma, aniqlagichli va murakkab tarkibli modellar asosida tasniflanib, ularning strukturaviy va etimologik xususiyatlari tahlili orqali Konimex, Ko'kcha, Kengsoy, Qumrabot, Chordara kabi joy nomlarining asosini tarixiy-lingvistik motivatsiya tashkil etishi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

hudud etnonimlarining semantik tabiati va tarixiy-lingvistik tahlili etnonimlarning til va milliy ma'naviy birlik sifatida o'rganilishi uchun ilmiy-nazariy asos vazifasini bajarishi, etnolingvistika, onomastika, dialektologiya, toponimika kabi fanlar bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalarining yaratilishiga muhim manba bo'lishi asoslangan;

tadqiqot davomida olib borilgan toponimik ekspeditsiyalar natijasida to'plangan materiallar asosida “Qizilqum hududidagi joy nomlari”ning lingvistik bazasi yaratilgan;

toponimlar tadqiqi asosida chiqarilgan xulosalar o'zbek tilining hududiy lug'aviy birliklari tahlili asosidagi yangi tadqiqotlarning yaratilishi uchun xizmat qilishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** chiqarilgan xulosalarning qat'iyiligi, ularni dalillovchi ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, to'plangan materiallar tahlilining ilmiy va metodologik jihatdan asoslanganligi, nazariy xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada o'zbek tili onomastikasini mikrotoponimiya haqidagi ilmiy qarashlar bilan boyitib, toponomik arealdagi ijtimoiy, lisoniy, tarixiy, geografik o'zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot materiallari, natija va xulosalari onomastika, geografiya fanlarini o'qitishda, o'zbek tili onomastikasi, leksikologiyasi bo'yicha darsliklar, metodik qo'llanmalar yozishda, o'zbek tilining milliy va geografik ensiklopedik lug'atlarini boyitishda, bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlarida maxsus kurs, maxsus seminarlar o'tishda manba vazifasini bajarishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriylanishi.** O'zbekiston Respublikasi Qizilqum hududi toponimlarining tarixiy-lingvistik tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

Qizilqum hududiga oid toponimlar semantik tasnifga ko'ra oykonim, gidronim, oronim, nekronim, agroonim va dromonim guruhlariga ajratilib, ularning nomlanishida urug' nomlari (Oyko'nek, Teleu, Keneges), antroponimlar (Xolmurodqazg'on, Utamurod, Eltoy), fitotoponimlar (Jing'ildi, Shengeldi, Ajiriqli) va zoonimlar (Qulanqoq, Ot quduq, Oqbo'ta) asosiy nominatsion omillar sifatida ishtirok etganligi asoslangan xulosalardan 2017–2020-yillardagi 2016-09081165532 raqamli "Qoraqolpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston pedagogika Fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpogiston filialining 2024-yil 8-maydagi 181-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasidagi nazariy ishlanmalarining toponimik jihatdan yangi ilmiy g'oyalar bilan boyitilishiga erishilgan;

toponimlarning hosil bo'lishida kompozitsiya (Yassikechuv, Kampirsoy, Mingbuloq) va onomastik konversiya (Tepa, Koriz) usullari yetakchilik qilganligi, affiksatsiya (Ajiriqli, Qog'ali, Tuyachi) usulining nisbatan kam qo'llanilganligi aniqlangan xulosalardan 2022–2024-yillarda bajarilgan IL–402104209. "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 1-maydagi 04/1-1142-son ma'lumotnomasi). Natijada, amaliy loyiha lingvistik shakllanish mexanizmlari bo'yicha puxta ilmiy asoslar bilan mustahkamlangan;

“qishloq”, “ovul”, “rabot”, “quduq”, “buloq”, “soy”, “tog’”, “tepa”, “jar”, “bel” kabi aniqlagichlar semantik markaz sifatida toponimlarning shakllanishida faol ishtirok etganligi Xo‘jaovul, Qumrabot, Qoraquduq, Oydinbuloq, Oqsoy, Bo‘kantov, Uchtepa, Oqjar, Saribel toponimlari misolida dalillangan xulosalardan 2017–2020-yillardagi 2016-09081165532 raqamli “Qoraqolpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpogiston filialining 2024-yil 8-maydagi 181-son ma‘lumotnomasi). Natijada, loyiha konsepsiyasida toponimik semantikaning hududiy o‘ziga xosliklarini aks ettirish imkoniyati kengaytirilgan;

toponimlar tub, affiksli, qo‘shma, aniqlagichli va murakkab tarkibli modellar asosida tasniflanib, ularning strukturaviy va etimologik xususiyatlari tahlili orqali Konimex, Ko‘kcha, Kengsoy, Qumrabot, Chordara kabi joy nomlarining asosini tarixiy-lingvistik motivatsiya tashkil etishi asoslangan xulosalardan 2022–2024-yillarda bajarilgan IL–402104209. “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 1-maydagi 04/1-1142-son ma‘lumotnomasi). Natijada, dasturiy modellashtirish uchun zarur bo‘lgan grammatik va leksik birliklar asosida toponimlarning lingvistik strukturasi boyitilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, jumladan, 5 ta respublika hamda 4 ta xorijiy jurnallarda maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 150 betni tashkil etdi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi va e‘lon qilingan ishlar bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Qizilqum hududi toponimlarining leksik-semantik guruhlari**” deb nomlangan bo‘lib, Qizilqum hududi mikrotoponimiyasi

etnomuloqot hududi hisoblanib, bu hududda etnoslar orasidagi aloqalar birmuncha qizg'in kechganligi, etnik xilma-xillikni tashkil etgan "etnomuloqot maydoni" haqida fikr bildirilgan. Mazkur bobning "*Oykonimlarning yaralishida tabiiy-geografik belgi-xususiyatlar*" deb nomlangan birinchi faslida O'zbekiston Respublikasi Qizilqum hududining umumturkiy toponimlari lingvistik tasnif jihatidan leksik-semantik tahlili turli xildagi geografik nomlarning o'zaro bog'liqligi, toponim yaratish usullarining birligi, barcha turlar uchun ma'lum toponim yaratuvchi elementlarning o'ziga xosligi to'g'risidagi fikrni to'liq tasdiqlaydi. Tadqiq etilgan hududning fizik-geografik sharoitlaridan kelib chiqib, aholi punktlarining paydo bo'lishi, asosan, qadim davrlardan suv havzalarining mavjudligi bilan bog'liq hisoblanadi.

Qizilqum hududidagi zamonaviy toponimlarning aksariyati etimologik jihatdan shaffof bo'lib, tahlil jarayoni murakkablik tug'dirmaydi. Biroq bu hududda kelib chiqishi noaniq, semantikasi yo'qolgan qadimiy toponimlar ham mavjud bo'lib, ular alohida ilmiy e'tiborni talab qiladi (masalan: Bo'kantov, Quljuqtov, Yassikeshu//Yassikechuv, Konimex//Kenimex). Struktur jihatdan toponimlar, asosan, etnonim va antroponimlarga tayanadi; turkiy toponimikada etnotoponimlar ustunlik qiladi, antropotoponimlar esa qadimgi davrlarga borib taqaladi. Shuningdek, bu hudud oykonimlari orasida apellyativ leksikaga asoslangan va rus tilidan yoki xalqaro leksik qatlamdan olingan nomlar asosida shakllangan. Masalan, Rudniy, Kommunizm, Avangard kabi nomlar shular jumlasidandir. V.A.Juchkevichning ta'rifiga ko'ra, ushbu jarayon geografik atamalarning umumlashuvi, individuallashuvi va abstraksiyalashuvi natijasida yuzaga keladi<sup>3</sup>.

Ba'zi joy nomlarida hududga nisbatan elatlarning egalik qilishi o'z ifodasini topgan. Demak, etnik nomlar muayyan joy, aholi punktining geografik-fizik obyektining ifodasi sifatida qaralishi kerak. Toponimist olim E.M.Pospelov fikricha, ko'chmanchi chorvachilikda qishki va yozgi yaylovlar ma'lum bir urug' nomiga berilgan, keyinchalik o'sha urug'ning nomi o'sha joylar nomiga aylangan. Masalan, Qizilqumdagi Sarbastepa, Qorasaqal qudug'i, Shobanqazg'an qudug'i, Qoratoqa qudug'i, Ko'nek qudug'i, Ayuteren, Navoiy shahri atrofida Nayman, Jalayir, Uyrot, Do'rman, Arg'in, Muyten qishloqlari va b.

Elatlarning yashash joylari haqida geografik nomlar orqali ma'lumot olish mumkin. Shuning uchun etnik nomlarni ayrim geografik va tabiiy obyektlarning joy nomi sifatida qarash lozim. Toponimist E.M. Pospelov fikricha, elat nomlari ko'chmanchi xalqlarning yozgi va qishki chorvachilik faoliyati bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik qishloq va ovullarga ham shu nomlar berilgan. Jumladan, *Oyko'nek ovuli*. Pastlikda qazilgan quduq, Ko'nek urug'ining nomi bilan atalib, shu urug' nomiga qo'yilgan. Bu quduq Uzunquduq ovuliga boradigan tosh yo'l bilan yurganda, Navoiy temiryo'lini kesib o'tadigan 8 km narida joylashgan qishloq nomi.

---

<sup>3</sup>Жучкевич В.А. Общая топонимика. – Минск: Высшая школа, 1968. – 432 с.

*Oyko'nek ovuli* – qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish moslashuv: to'liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgisiz kelishik va belgili egalik, o'tli birikma, sodda birikma.

*Teleu ovuli*. Konimexdan Sho'rko'lga boradigan yo'lning o'ng tarafida joylashgan ovul. Bu qishloqda Teleu urug'ining avlodlari yashaydi.

*Teleu ovuli* – qaratqich-qaralmish, aniqlovchili birikma, tobelanish moslashuv: to'liq moslashuv, ot+ot, vositasi – formal-grammatik vosita: belgisiz kelishik va belgili egalik, o'tli birikma, sodda birikma.

*Sho'rko'l ovuli*. Sho'rko'l avval Qatag'on ovuli deb atalgan. Qatag'onlar O'rta Osiyoda makon etgan qadimgi elatlarning biri. Rashididdinning "Jome at-tavorix" kitobida Qatag'onlar "Xatakin" deb atalgan.

*Sho'rko'l* – mazkur toponim *sho'r* (sifat)+*ko'l* (ot) so'zlarining birikishi natijasida bitishuvli sintaktik qurilma hosil bo'lgan, bunda *sho'r* – tobe bo'lak, *ko'l* – hokim bo'lak bo'lib, atributiv munosabat hosil bo'lgan: aniqlovchi+aniqlanmish; sifatlovchi+sifatlanmish, tobelanish, o'tli birikma, pozitsion vosita.

Qizilqum hududi toponimik tizimining bo'laklaridan biri fitotoponim bo'lib hisoblanadi. Bu nomlar hududning florasini bilan chambarchas bog'liq. Biologik jihatdan bu yerda o'sadigan o'simliklar efemerlar va efemeroitlar deb nomlanadi.

Qizilqum hududida vaqti-vaqti bilan tabiat o'zgarib turgan. Masalan, Qizilqumda suvli joylar ko'p bo'lgan. Shu sababli hudud kengliklarida katta to'qaylar bo'lgan bo'lib, bu to'g'risida joy nomlari dalolat beradi. Masalan, *Jing'ildi* nomi cho'l joylarda o'sadigan *Jing'il* o'simligiga bog'liq holda paydo bo'lgan joy nomi. *Jing'ildi*, ya'ni *jing'il* + *li* – o'simlik nomini bildiruvchi so'zga –li sifat yasovchi qo'shimcha birikishi natijasida joyga nisbatan xususiyatni ifodalovchi toponim hosil qilingan, hudud dialektidan kelib chiqib –li yasovchi qo'shimcha –di tarzida talaffuz etilgan, natijada *jing'il* + *li* >+di // *Jing'ildi* nomi hosil bo'lgan hamda *Jing'ildi* toponimi vujudga kelgan.

*Gujimditov* Zarafshondan Besapanga qarab tushgan yo'ldan 20 chaqirim chap tomonda joylashgan tog'. *Gujimditov* nomi *Gujim* degan qora yog'och (qayrag'och)ning nomi bilan bog'liq, ya'ni *gujum* + *li* – o'simlik nomini bildiruvchi so'zga –li sifat yasovchi qo'shimcha birikishi natijasida joyga nisbatan xususiyatni ifodalovchi toponim hosil qilingan, hudud dialektidan kelib chiqib –li yasovchi qo'shimcha –di tarzida talaffuz etilgan, natijada *gujum* + *li* >+di // *gujumdi* nomi hosil bo'lgan, joyga nisbatan tog'>tov (bunda ham fonetik o'zgarish yuz bergan: g'>v) aniqlagichi asosida *Gujimditov* toponimi vujudga kelgan.

Bobning ikkinchi "*Gidronimlar va antropogidronimlarning etimologik tadqiqi va lingvistik tahlili*" faslida toponimlarning bir turi bo'lgan gidronimlar xalq tarixi bilan bog'liq bo'lib, milliy tilning, xalq ijtimoiy hayoti, madaniyati va ma'naviyatining o'ziga xos qirralarini ifoda etuvchi lisoniy qatlam ekanligiga e'tibor qaratilgan.

Qizilqum hududida aholi punktlari va sug'orish tizimlari (daryo, ko'l, soy, koriz, quduq, qoq) bilan bog'liq toponimlarning shakllanishi hududning fizik-geografik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu yerda gidronimlar, asosan, antroponimik kelib chiqishga ega bo'lib, fitogidronimlar va zoogidronimlar ham uchraydi. Ayniqsa, cho'l

hududlarida suvsiz joylarni o'zlashtirish inson faoliyatiga bog'liq bo'lganligi sababli, quduq kabi suv manbalarining nomlari ko'pincha antropogidronimlar sifatida shakllangan. Ko'p hollarda bu nomlar quduq atrofida vujudga kelgan aholi punktlariga ham ko'chgan, natijada gidronim-oykonim transonimizatsiyasi yuzaga kelgan.

Antropogidronimlar shaxs nomlari asosida vujudga kelgan suv obyektlari: soy, ariq, buloq, quduq, hovuz, ko'l va boshqalarning atoqli otlaridir<sup>4</sup>. Bunday nomlar kishilarning suv obyekti bilan munosabatini – unga egalik, barpo etganlik kabi dalillar asosida motivlanganligi, atalganligini ifoda qiladi<sup>5</sup>. Masalan, Kenbay quduq, Xolmurodqazg'on, Sarbay qazdirg'on quduq, Sarbay qazg'on munara, Muxammedjon quduq, Buzaubay quduq, Musirep quduq va shu kabilar.

Qizilqum gidronimlari ushbu hudud toponimiyasida muhim o'rin egallaydi.

*Daryo.* Bu eron tilidan olingan bo'lib, “dengiz, katta daryo” ma'nosini bildiradi. E.M.Murzayev ushbu atamani Osiyo va Indoneziyaning ko'pgina gidronimlari tarkibida qayd etgan. Turkiy tillarda “daryo, katta daryo” ma'nosida qo'llaniladi. Qizilqum hududi toponimiyasida ikkita gidronim – Sirdaryo va Qizildaryo komponenti mavjud.

*Sirdaryo.* U o'rganilayotgan hududning va butun O'rta Osiyoning asosiy suv arteriyasi hisoblanadi. Ma'lumki, Sirdaryo haqidagi ma'lumotlar ko'plab sayyoh va mahalliy tarixchi mualliflarning asarida uchraydi. Sirdaryo gidronimi, milodning I asrida Rim tarixchisi Pliniy asarida “Silis” shaklida uchraydi<sup>6</sup>. E.Safoyeva va I.Shoyimardonovlarning ta'kidlashicha, “Silis” nomi sarmat, “sar”, “sir” so'zlari bilan bog'liq bo'lib, bu so'zlarning hammasi shu daryo atrofi hududida yashagan sart qabilasiga aloqador<sup>7</sup> ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, V.V.Bartold, S.G.Klyashtorniy va H.Hasanov kabi olimlar ham, “Silis” va “Sir” nomlarini bitta so'zning turli fonetik shakllari deb hisoblaydilar. Shu asosda, “Silis” va “Sir” nomlari bir-birining fonetik variantlari sifatida qaraladi.

Qizildaryo – bu Sirdaryoning qurib qolgan tarmoqlardan birining o'zani. Hozirgi vaqtda Arnasoy ko'llarining suvlari bilan to'lgan. V.Sh.Karabayev fikriga ko'ra, “Qizilqum qumlari Sirdaryodan suv olgan Qarg'ali darasi yaqinida joylashgan yirik qurigan o'zanga to'g'ri keldi, u janubga qarab qariyb 20 chaqirim masofaga cho'zilgan. Ayrim hududlarda torayib, keyin esa yana kengayib Nurota tog' tizmasiga qarab janubiy g'arbga burilgan”<sup>8</sup>.

*Ko'l.* Ko'l – kelib chiqishi turkiy so'z. Yozma manbalarining ma'lumotlariga ko'ra, turkiy tillarda u qadim zamonlardan qo'llaniladi. Gidronimik atama sifatida mo'g'ul, hind-eron va kavkaz tillarida ham qo'llaniladi. Jumladan, Sho'rko'l.

*Soy.* Soy atamasi – O'rta Osiyo gidronimlarining tarkibidagi eng unumdorlardan biri. Soylar, ko'pincha, tog'tagi hududlarida joylashadi. Tadqiq

<sup>4</sup> Охунов Н. Антропотопонимлар ва уларнинг ясалиши. //Тил ва адабиёт таълими. 2005. – №1. – Б.92

<sup>5</sup> Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лосоний тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ... дисс. –Тошкент, 2010. – 162 б.

<sup>6</sup> Плиний Старший Естественная история Книга II Вып.3. Сборник статей. Москва: Наука, 2007. – 287-366 с.

<sup>7</sup> Сафаева Э., Шойимордонов И. Ўзбекистон халқлари тарихини ўқитишда ўлкашунослик материалларидан фойдаланиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 24 б.

<sup>8</sup> Древнетюркский словарь / ред. В.М. Надеяев, Д.М. Насилов, Э.Р. Тенишев, А.М. Щербак. Ленинград: Наука, 1969. – 313 с.

etilgan hududda soy atamali gidronimlar ancha kamroq. Bu, asosan, tekislik hududi ulkanligi bilan tushuntiriladi. Jumladan, Sarmishsoy, Kampirsoy, Oqsoy, Yelsoy, Qayroqlisoy.

*Arnasoy*. Jizzax viloyati hududida joylashgan. Arnasoy gidronimidan yangi nomlar hosil bo'lgan: Arnasoy ko'llari, Arnasoy tumani, Arnasoy qishlog'i, Arnasoy qo'rg'oni va boshqalar.

Arnasoy – Qizilqum cho'llariga tutashgan Murzacho'lining shimoli-g'arbiy qismidagi pastliklar, hozirda suv bilan to'ldirilgan. *Arna* – “jarlik”, “kanal”, “soylik”, “jar”, “*arna*” so'zi juda qadimgi. *Arna* – daryodan hosil bo'lgan kanal<sup>9</sup>. Shuningdek, “arna” atamasining etimologiyasi to'g'risida E.V.Sevortyan quyidagilarni yozgan: 1. ariq – (ko'plab turkiy tillarda) sug'orish kanali. ariq – umumiy ma'nosi oqib chiqmoq, singmoq (suv to'g'risida)... arna- (/-(aftidan, -ardan – iga medial shakldan, ya'ni arin+a). “Kanal”, “daryo irmog'i”<sup>10</sup>.

*Oqsoy* – Qizilqum hududidagi Nurmaxan qishlog'ining sharqida joylashgan, Oqsoyda bir metr balandlikda o'suvchi Aqbas nomli o'simlik ko'p o'sganligi sababli bu soyning nomi “Oqsoy” deb nomlangan.

*Yelsoy* – Uchquduq shahrining shimoliy sharqida joylashgan, bu soyda doimiy kuchli shamol bo'lib turgani uchun mahalliy aholi bu soy nomini “Jelsoy” deb atashgan.

*Quduq* – xalq geografik atamasi sifatida butun Markaziy Osiyo gidronimlari tarkibida keng tarqalgan. Gidronimlarning aksariyat qatori mazkur gidronimik atamalar yordamida yaratilgan. E.Murzayev bu haqida shunday deb yozadi: “...atama Ukraina janubidan Sharqiy Sibirgacha bo'lgan kengliklarga yoyiladi. Povolje, Qrim, Shimoliy Kavkazning rus lahjalarida ma'lum”. “Quduq” atamasining kelib chiqishi turkiy qatlamga mansub. Kuzatishlarimizga ko'ra, quduq atamasi Qizilqum hududi gidronimlari tarkibida eng ko'p ifodalangan bo'lib, hozirgi vaqtda sun'iy 316 ta suv havzalarini va ushbu obyektlarning 316 ta til belgilarini aniqladik.

*Oyko'nek quduq* Ko'nek urug'ining nomi bilan atalgan. Quduq Zarafshon shahridan Uzunquduq ovuliga boradigan yo'l bilan harakatlanayotgan Navoiy-Uchquduq temiryo'lini kesib o'tishda joylashgan. Hozirgi paytda u yerda aholi yashamaydi.

*Oq murt quduq* – Alim urug'ining Izbosar degan oq mo'ylovli odami qazdirgani uchun “Oq murt quduq” deb nomlangan.

Qizilqum hududining gidronimlari ushbu hudud toponimiyasida ahamiyatli o'rinni egallaydi. Bu bir qator sabablar bilan asoslangan.

Birinchidan, odamlar qadimdan suvsiz dashtning bepoyon bo'm-bo'sh yerlarini o'zlashtirishga intilganlar. Qadimgi sug'orish inshootlari qoldiqlari dashtning ba'zi qismlarida, ya'ni korizli sug'orish tizimi mavjudligi to'g'risida Qizilqumda koriz toponim-gidronim saqlanganligidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, suvsiz cho'l hududida hattoki kichik suv havzasi ham hayot uchun muhim qiymatga ega. Chunki Qizilqumda (har bir cho'lda) suv

<sup>9</sup> В.В.Радлов, Опыт словаря тюркских наречий. Т.І. – Санкт-Петербург: Императорской Академии Наук, 1893. – 303 с.

<sup>10</sup> Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – Москва: Наука, 1974. – 188 с.

havzalarining mavjudligi juda ham muhim rol o'ynaydi. Cho'l hududida ko'chma chorvachilik uchun ichimlik suv manbalarisiz mumkin emas. Suv havzalarining xususiyatlari to'g'risida mahalliy aholi avloddan avlodga ma'lumotlarni yetkazgan. Masalan: *qoq yoki achchiq (sho'r)*.

*Qoq* qozoq tilining izohli lug'atida: *Qoq* – kuchli yog'ingarchilikdan keyin paydo bo'ladigan suv<sup>11</sup>.

*Asauqoq* Qaraqota aholi punktiga qarashli joy nomi. *Asovqoq* “jilovlanmagan suvli joy” ma'nosida keladi. Ushbu toponim *asov+qoq* shaklida sifat+ot so'zlarining birikmasidan yasalgan bo'lib, *asov* – tobe so'z, *qoq* – hokim so'z, atributiv munosabat: aniqlovchi+aniqlanmish–sifatlovchi+sifatlanmish, aniqlovchili birikma, tobelanish, bitishuv, sifat+ot, pozitsion vosita, o'tli birikma. Ushbu yasama toponim mavjud oykonimik asosga (*asov-asau*, hudud dialektidan kelib chiqib –*asov* so'zi *asau* tarzida talaffuz etilgan) oykonimik aniqlagich (*qoq*)ning qo'shilish jarayonidan oykonim yasalishi ro'y bergan.

Milliy geografik atama tarkibida *qoq* komponentli gidronimlar cho'l hududining og'ir sharoitlarida hayotiy ahamiyatga ega bo'lganligi sababli Qizilqum hududi toponimik tizimida muhim ma'noga ega.

Bobning uchinchi “*Oronimlar tadqiqi va oronimiyadagi anatomik atamalar*” deb nomlangan faslida toponimika sohasiga oid ilmiy manbalarda oronimlarning qayd etilishi, ushbu sohaning onomastikada alohida yo'nalish sifatida shakllanish jarayonlari, xorijda va mamlakatimizda ushbu sohaning o'rganilishi masalasi qayd etilgan.

Onomastikada oronimika toponimikaning alohida sohasi sifatida 1960–1970-yillarda ilmiy yo'nalish bo'lib shakllandi. Tojikiston oronimiyasi B.A.Alborov, A.Z.Rozenfeldlar tomonidan o'rganilgan. Rossiyada oronimlarning monografik tadqiqini ilk bor O.T.Molchanova boshlab berdi. 1969-yilda esa oronimikaga doir ilk ilmiy maqolalar to'plami nashr etildi. To'plamga Yoqutiston, Tojikiston, Eron va Qrim oronimiyasiga doir ilmiy maqolalar kiritilgan<sup>12</sup>. Turkologiyada oronimlar hamda gidronimlar bo'yicha monografik tadqiqotlat yuzaga keldi. XX asrning 80-yillarida Y.Kerambayevning Qozog'iston oronimlarining leksik-semantik tadqiqi<sup>13</sup>, R.D.Sunchugashevning Xakasiya oronimiyasiga doir dissertatsiyalari<sup>14</sup> yuzaga keldi. N.A.Lasynova Janubi-Sharqiy Boshqirdiston oronimiyasi bo'yicha ilk lingvistik tadqiqot yaratdi<sup>15</sup>, biroq uning oronimlarga har qanday yerosti obyektlari nomlari – speleonimlarni kiritishiga qo'shib bo'lmaydi. Speleonim (yun. cnleo – g'or + onoma – atoqli ot) – yer ostida joylashgan, yer ustiga chiqish yo'liga ega bo'lgan har qanday obyektlar (g'orlar, yer osti daryolari, buloqlar, sharsharalar, ko'llar, quduqlar va shu kabilar)ning atoqli oti<sup>16</sup>. Demak,

<sup>11</sup> Қазақ сөздігі (*Қазақ тілінің біртөмдік үлкен түсіндірме сөздігі*) – Алматы: “Дәуір”, 2013. – 737 б.

<sup>12</sup> Оронимика. Сб. Статей / Ред. В.Д. Беленькая и др. – Москва, 1969. – 71 с.

<sup>13</sup> Керамбаев Е.А. Лексико-семантическая типология оронимов Казахстана: Дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1988. – 195 с.

<sup>14</sup> Сунчугашев Р.Д. Оронимия Хакасии: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 1999. – 23 с.

<sup>15</sup> Ласынова Н. А. Оронимия Юго-Восточного Башкортостана (Лингвистический анализ): Дис. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2004. – 174 с.

<sup>16</sup> Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – 70 б.

speleonimlar gidronimik ko‘lam sirasiga kiradi. Bu tadqiqotlar oronimikaning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishiga asos bo‘ldi.

O‘zbek tilshunosligida toponimik tadqiqotlarda oronimikaning qamrov doirasi yetarlicha aniqlashtirilmagan bo‘lib, ilmiy manbalarda bu sohaga oid faqat ayrim izohlarga duch kelinadi: “Oronimika – toponimikaning ma’lum bir til yo hudud oronimlari majmuyini o‘rganadigan bo‘limi”<sup>17</sup>. S.Qorayev bu terminga quyidagicha izoh beradi: “Oronimika – toponimikaning oronimlarni vujudga kelishi, taraqqiyot qonunlarini va amal qilishini o‘rganadigan kichik bo‘limi”<sup>18</sup>. Sh.Temirov “Obyektning tabiiy belgi-xususiyatlarini tavsiflovchi oronimlar mavzuiy guruhiga obyektning rang-tusi, hajmi, shakli, o‘rni, tuproq qatlami, tarkibi kabi belgi-xususiyatlarni ifodalovchi leksemalar lug‘aviy asos bo‘ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy oronimlar aholining xo‘jalik faoliyati, yashash tarzi, mashg‘uloti, kasb-kori, etnik tarkibi bilan bog‘liqdir”<sup>19</sup> degan ta’rif beradi.

Oronimlar muayyan turdagi oroobyektlarni ajratib nomlash orqali ularni o‘xshash obyektlardan farqlash funksiyasini bajaradi.

O‘rta Osiyoning umumturkiy toponimiyasida anatomik atamalar keng qo‘llanilishi Qizilqum hududida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu hududdagi toponimlarda oyoq, bosh, ko‘z, burun, o‘rkach, bo‘yin kabi anatomik atamalar uchraydi. Masalan, Ayaqquduq, Boshog‘itma, Oyoqog‘itma, Kichiko‘z, Ulkenko‘z, Muruntov, Moyinqum, O‘rkeshov, Quljuqov kabi nomlarda bu elementlar aks etgan.

*Oyoqog‘itma* ikki komponentli toponim bo‘lib, Qizilqum hududidagi suv geografik obyektining nomi. Oyoq – anatomik atama toponim tuzilishida anatomik juftlikka ega.

*Oyoqog‘itma* toponimining tarkibida *oyoq* komponenti toponim yaratuvchi unsur sifatida namoyon bo‘lib, bu jarayonda ko‘chma ma’noda qo‘llangan. Ushbu holat toponimik tizimda semantik o‘zgarishlarning kuzatilishini ko‘rsatadi: “oxiri, nimaningdir oxirgi qismi, bu yerda fizik-geografik obyektning aniq oxirgi qismi, ya’ni Oyoqog‘itma bulog‘ining bir qismi”<sup>20</sup>. Bu holda suv havzasining ko‘rib chiqilayotgan nomi antonimik juftlikka ega: anatomik atama bosh/bas. O‘zbekiston Respublikasining Qizilqum hududida Ayaqquduq gidronimi tarkibida ham bu anatomik termini kuzatamiz.

Biz tadqiqotimiz davomida Qizilqum hududida milliy geografik atama tog‘ nomi tarkibida ishtirok etgan holda ifodalangan 60 ta oronimni aniqladik: *Keregetov, O‘kiztov, Qasqirtov, Tulkitov, Aristantov, Tomditov, Nuratatov, Kelinchaktov, Tobabergentov, Besapantov, Bo‘kantov, Altintov, Murintov, Pistelitov, Boztov, Balpantov, Qorator, Aytimtov, Baqalitov, Boshog‘itmatov, Jalpaqov, Tumshiqov, Alimtov, Sulton Uvays tog‘i, Shoqitov, Dauqiztov, Keregetov, Gujimdov, Burkittov, Beltov, Amantaytov* va boshqalar. Masalan, *Qorator* (Qora tov belidan yuqoridagi dovon), *Qasqirtov* (Uchquduq shahrining

<sup>17</sup> Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. – Тошкент, 2002. – 82 б.

<sup>18</sup> Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: О‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005. – 217 б.

<sup>19</sup> Темиров Ш.А. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи. Фил.фан.фал.док.(PhD) дисс.автореф. – Самарқанд, 2019. – 23 б

<sup>20</sup> Қазақ сөздігі (*Қазақ тілінің біртөмдік үлкен түсіндірме сөздігі*) – Алматы: Дәуір, 2013. – 145 б

shimoli-sharqidagi tog‘), *Tulkitov* (Qaqqatoshning janubiy-sharqidagi tog‘), *Jeltumshiq* (Keregetovning davomi), *Toqtili tov* (Jeltumshiq tog‘i davomi), *Oqsaritov*, *O‘rkeshtov*, *O‘kiztov*, *Ushtov*, *Ko‘ktov*, *Toqtitov* (bu yerdagi tog‘larning cho‘qqilari), *Oqjar* (Qizilquduq ovulidan 3 kilometr g‘arbda joylashgan qoya). Bir qarashda, Qizilqum hududidagi oronimlar kam sonli bo‘lishi kerakdek tuyuladi, chunki u, asosan, tekisliklardan iborat. Mavjud bo‘lgan chuqurliklar va pasayishlar esa asta-sekin suvosti suvlari bilan to‘ldirilgan va ko‘llarga, soylarga aylanib gidronimlarning tarkibini to‘ldiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Toponimlar shakllanishining tarkibiy va grammatik xususiyatlari”** deb nomlangan. Bobning *“Qizilqum hududi onomastik birliklarining transonimizatsiyasi”* nomli birinchi faslida onomastik birliklarning transonimizatsiyasi lingvistik jarayon bo‘lib, u boshqa tilga moslashish jarayonida yuzaga keladi. Bu hodisa fonetik va grafik tizimlar farqlari bilan bog‘liq bo‘lib, xalqaro kommunikatsiya va an‘anaviy yozuv uslublariga ta’sir qiladi. Atoqli otlarning o‘zgarishsiz berilishi esa kommunikatsiya jarayonlarida aniqlikni ta’minlaydi. Ba’zi hollarda esa fonetik qulaylik yoki an‘anaga ko‘ra o‘zlashtirish amalga oshiriladi.

B.Kilichevning ta’rificha, “Atoqli otlar o‘z tabiatiga ko‘ra tilning g‘oyatda turg‘in, kam o‘zgaruvchan, o‘zga tillarga tarjimasiz beriladigan materialidir. Shu xususiyatiga ko‘ra atoqli otlar tarixiy, lisoniy va nutqiy jihatdan ilmiy tadqiqot uchun eng ishonchli daliliy vosita bo‘ladi.

Ayniqsa, atoqli otlarning bir ko‘rinishi toponimlarning paydo bo‘lishi tarixi, ularning tuzilish va yasaliş xususiyatlarini o‘rganish lingvistik nuqtayi nazaridan ahamiyatga ega. O‘zbek tilshunosligida atoqli otlarning yasaliş bo‘yicha E.Begmatov, T.Nafasov, Z.Do‘simov, T.Rahmatov, N.Oxunov kabi tadqiqotchilarning qator ilmiy ishlari nashr qilingan. Ushbu tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tilda toponimlarning hosil bo‘lishi turli yo‘l va usullar bilan amalga oshiriladi: affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya va h.k.”<sup>21</sup>.

Qizilqum hududida shakllangan toponimlarning qiyosiy tahlili ularning kelib chiqishi va taraqqiyotini chuqur o‘rganish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, Navoiy viloyatidagi tarixiy toponimlarning rivojlanish tendensiyalari va lingvistik asoslarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Transonimizatsiya jarayonida yuzaga kelgan toponimlar qatoriga Zarafshon (daryo → shahar), Uchquduq (quduq → shahar), Tomdibuloq (tomdi → tuman) kabi misollar kiradi. Bu kabi holatlar toponimik tizimning izchilligi va uning tarixiy-madaniy omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Ayrim ishlarda yuqorida aytilgan hosilalarga nisbatan toponimlar atamasi qo‘llaniladi. Ammo mazkur hodisani olimlar onomastikada kontaktli o‘tish, toponimik transonimizatsiya degan atamalar bilan belgilagan. N.V.Podolskaya transonimizatsiya atamasini taklif etdi. N.Uluqovning fikricha, “turdoş otlardan hech qanday o‘zgarishsiz atoqli otlar: toponimlar, jumladan, gidronimlar, antroponimlar, zoonimlar, fitonimlar hosil bo‘lishiga nisbatan konversiya, bir atoqli otdan boshqa atoqli ot hosil bo‘lishiga nisbatan transonimizatsiya terminini

---

<sup>21</sup> Kilichev B. Onomastika. O‘quv qo‘llanma. Buxoro, 2023. – 21 b.

qo‘llash maqsadga muvofiq”<sup>22</sup>. Demak, transeminimizatsiya – biror tip atoqli otlarning boshqa tip atoqli otlarga o‘tishi. Atoqli otlarning transeminimizatsiyasi keng ko‘lamli bo‘lib, uning barcha tiplarida - antroponim, toponim, zoonim va kosmonimlarda uchraydi. Etnotoponimiyadagi kontaktli nom ko‘chish jarayonlarini o‘rganish esa turkiy xalqlarning tarixiy joylashuvi, migratsiyasi va madaniy aloqalari haqida muhim ilmiy ma‘lumotlar beradi. Bu lingvistik onomastika bilan tarixiy-etnografik tadqiqotlar kesishmasida yangi ilmiy yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Qizilqum hududida aniqlangan minglab qozoq etnotoponimlari maxsus leksik qatlamni tashkil etib, qadimiy substrat leksemalar va morfemalarni saqlagan. Etnotoponimiyadagi bu qatlamni tahlil qilish nafaqat lingvistik, balki tarixiy, etnografik va turkiy xalqlarning etnogenezi va glottogeneziga oid muammolarni yoritishda ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston hududida qadimdan umumturkiy etnonimik tizim shakllangan bo‘lib, u keyinchalik etnotoponimlar (etnooykonimlar) shaklida saqlanib qolgan. Ushbu tarixiy-madaniy jarayonlarning tahlili quyidagi muhim ilmiy xulosalarni chiqarishga asos bo‘la oladi:

1. Etnotoponimlarning shakllanishi lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan uzviy bog‘liq. Ushbu jarayon uzoq vaqt davom etadigan transeminimizatsiya hodisasi bilan bevosita aloqador. Biroq, transeminimizatsiya hali to‘liq ilmiy tahlil qilinmagan fenomenlardan biri bo‘lib, tadqiqot natijalarimiz shuni ko‘rsatadiki, etnonimlarning toponimlarga (etnonim → toponim) va gidronimlarga (etnonim → gidronim) o‘tishi kontaktli nom ko‘chish jarayonlari orqali amalga oshadi.

2. Atoqli otlarning kontaktli o‘tish hodisasini belgilovchi, ya‘ni bir obyekt nomlarining ikkinchisiga o‘tishini, qator atamalarning noaniqligini inobatga olib, ilmiy muomalada N.V.Podolskaya taklif etgan faqat transeminimizatsiya hodisasi ta‘rifida ko‘rib chiqishni taklif etamiz.

Shunday qilib, Qizilqum hududining toponimiyasida ham toponimlarning boshqa atoqli otlar guruhlaridan kelib chiqishi kuzatiladi. Bu jarayon transeminimizatsiya hodisasi doirasida sodir bo‘lib, unda oronim → oykonim, antroponim → oykonim, etnonim → oykonim, gidronim → oykonim kabi nomlanish sxemalari shakllanadi. Ushbu jarayon natijasida turli hududiy birliklarning nomlanishi ijtimoiy, etnik va tarixiy omillar bilan uzviy bog‘liq holda o‘zgarib boradi. Mazkur hodisani konkret misollar asosida tahlil qilish uning shakllanish mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi:

1) oronimning oykonimga o‘tishi: Uchtepa (oronim) – Uchtepa (oykonim); Qoratepa (oronim) – Qoratepa (oykonim); Julaytepa (oronim) – Julaytepa (oykonim).

2) antroponimning oykonimga o‘tishi: Utemurod (antroponim) – Utemurod (oykonim); Baymurat (antroponim) – Baymurat (oykonim).

3) etnonimning oykonimga o‘tishi: Qatog‘on (etnonim) – Qatog‘on (oykonim); Teleu (etnonim) – Teleu (oykonim); Qiyat (etnonim) – Qiyat

---

<sup>22</sup> Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2010. – 28 б.

(oykonim); Keneges (etnonim) – Keneges (oykonim); Oyko‘nek (etnonim) – Oyko‘nek (oykonim); Qorasaqal (etnonim) – Qorasaqal (oykonim).

4) gidronimning oykonimga o‘tishi: Uchquduq (gidronim) – Uchquduq (Qizilqum hududidagi polisonim), Zarafshon (gidronim) – Zarafshon (Qizilqum hududidagi polisonim), Tomdibuloq (gidronim) – Tomdi (Qizilqum hududidagi oykonim).

Shunday qilib, har bir toponimik tizimda toponimik atamalardan yoki o‘rnatilgan toponimlardan paydo bo‘lgan geografik nomlar ma’lum bir o‘rinni egallaydi. Ayrim ishlarda yuqorida aytilgan hosilalarga nisbatan toponimlar atamasi qo‘llaniladi.

Bobning “*Qizilqum hududi toponimlarining shakllanishining morfologik usullari*” nomli ikkinchi faslida har bir hudud toponimiyasida qadimiy substrat leksika unsurlari saqlanib qolishi ta’kidlanadi. Bu qatlamni grammatik tahlil qilish til tarixini o‘rganishda muhim bo‘lib, toponimlarning uzoq muddatli funkcionalligini yoritishga xizmat qiladi. Bunday nomlar tarixiy grammatika uchun muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, toponimlarning zamonaviy shakllanish holatini o‘rganish ham lingvistik nuqtayi nazardan katta ahamiyatga ega. V.A.Juchkevich o‘zining “Umumiy toponimika” kitobida: “Geografik nomlar tilning lug‘aviy tarkibining bir qismi bo‘lib, muayyan til qonuniyatlariga bo‘ysunadi, shu sababli toponimika tilshunoslikning bir bo‘lagi hisoblanadi”<sup>23</sup>, degan fikrni keltiradi.

Toponimlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu hududdagi turkiy kelib chiqishga ega joy nomlari, asosan, ikkita grammatik usul – morfologik va sintaktik yo‘l bilan shakllangan.

So‘z yaratilishining morfologik usuli o‘zbek<sup>24</sup> va barcha turkiy tillarda leksik birliklarni yasashning eng samarali usuli deb hisoblanadi. Ushbu usul toponimik birliklarni yaratishda ham samaralidir. Morfologik toponim yaratilishining shakllanishi bo‘yicha olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, bu jarayonda asl o‘zbek tilidagi so‘z yasovchi elementlar bilan bir qatorda o‘zlashtirilgan tojikcha so‘z yasovchi elementlar ham faol ishtirok etgan.

Ta’kidlanganidek, o‘zbek tilida affiksatsiya so‘z yasashning eng sermahsul usulidir. Ammo toponim yaratilishida barcha so‘z yasovchi affikslar ham ishtirok etmaydi. O‘zbek tilida toponim yaratuvchi affikslarga oid: -chi, -li, -lik, -ma, -loq, -sh/-ish, -ik/-uk, -lar. Ular otlar, sifatlar, sonlar va fe’llar bilan geografik nomlar hosil qiladi.

-li o‘rganilayotgan hududdagi bir qator toponimlar o‘zbek tilidagi -li affiksi va uning etnonim yasashida mahsuldor bo‘lgan -li, -ti fonetik variantlari yordamida shakllangan. S.Gubayeva etnotoponimlar tarkibidagi bu affikslarni alohida ajratib bo‘lmaydi, deb hisoblaydi. “Haqiqatdan ham, -li, -lik (variantlari bilan) toponimlarning atributiv tarkibida uchraydi. Lekin har doimgidan ham biz ularni maxsus toponim yasovchi qo‘shimchalar sifatida ajratib ko‘rsatishga, haqlimiz. Agar toponim ma’lum bir hududda biror narsaning, xususan,

<sup>23</sup> Жучкевич В.А. Ko‘rsatilgan asar. – 7-8 с

<sup>24</sup> Гуломов А. Ўзбек тилида сўз яшаш йўллари ҳақида // Тил ва адабиёт институти асарлари. – Тошкент, 1949. – 65 б.

o‘simlikning mavjudligini bildirsa, uning affiksial shakllanishi haqida gapirish mumkin.

Quyida o‘rganilgan hududning toponimlari tarkibida -li/-ti/-di affiksi mavjudligini kuzatamiz:

a) u yoki bu joyda ma’lum bir o‘simliklarning mavjudligi, masalan, Ulken isqali, Kichik isqali, Qog‘ali, Qamishli, Ajiriqli, Paxtali, Gujundi, Jing‘ildi, Shengeldi;

b) turli hayvonlarning mavjudligi: Jilandi, Qasqirli;

v) aholi punktida yashaydigan u yoki bu elat vakillarining mavjudligi: Sirg‘ali (bu aholi punktida, asosan, Sirg‘ali urug‘ining vakillari yashagan), Qo‘shnamg‘ali, Oshamayli haqida ham shunday deyish mumkin.

-chi S.S.Gubayevaning -chi affiksi turkiy toponimiya uchun “xos” emasligi fikriga nisbatan jiddiy qarajak, unda Qo‘qon guruhi toponimiyasi ma’lumotlari aksini ko‘rsatadi. N.Oxunov, masalan, ushbu affiks bilan yaratilgan 30 dan ortiq nomlarni aniqlaydi<sup>25</sup>. Shu qatorida, dissertatsiya matnida -lik, -sh//ish, obod, kor, dor, -paz, -kash, -iston, -xona kabi formantlarga ham to‘liq izoh berilgan bo‘lib, ularning kishilarning ma’lum guruhini, xo‘jalik faoliyatining asosiy turini, aholi manzilgohlarini, kasbni, mashg‘ulotlar turini ifodalovchi toponimlar yasashida o‘rni belgilab berilgan.

Bobning uchinchi fasli “*Hudud onomastik birliklari shakllanishining sintaktik usuli*” deb nomlanadi. Tadqiqot ishlari olib borilgan hududning toponimik tahlillari shuni ko‘rsatadiki, joy nomlarining katta qismi sintaktik usul yordamida hosil qilingan. Bunday nomlash jarayoni til tizimidagi mavjud birliklarning o‘zaro grammatik bog‘lanishi orqali amalga oshiriladi. Xususan, so‘z birikmalari va gaplar asosida tarkib topgan toponimlar hudud atoqli ot birliklari tizimida yetakchi o‘rin tutadi. Bu esa hududiy til xususiyatlari, etnolingvistik omillar va tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Ko‘p hollarda tavsifli belgilanishi bilan tushuntiriladi. Sintaktik usul bilan hosil bo‘lgan toponimlar ma’lum bir joyga bog‘liq holda tavsiflangan.

Sintaktik usul orqali “birdan ortiq asoslarni qo‘shish orqali yangi so‘z hosil qilish mumkin. Ushbu usul tilshunoslikda sintaktik usul, so‘z qo‘shish, analitik usul, morfologik-sintaktik usul, kompozitsiya usuli deb ham yuritiladi. Sintaktik usul til leksikasini boyitishning eng mahsuldor usullaridan biridir. Ushbu hodisa tilning onomastik sathi uchun ham tegishlidir”<sup>26</sup>.

Toponimist olimlar uzoq vaqtdan beri tegishli nomlarni shakllantirishda geografik atamalarni batafsil bayon qilish faoliyatiga e’tibor qaratishgan. E.M.Murzayev qayd etishicha, bu hodisa, ayniqsa, turkiy toponimiyaga xosdir. “Slavyan va ayrim boshqa Hind-Yevropa tillari tarkibida zamonaviy geografik nomlar turkiy, mo‘g‘ul, tung‘us-manjur muhitidagiga qaraganda kamroq ta’sir qiladi, bunda toponimlarning aksariyati mahalliy atamalar ishtirokida yaratilgan”<sup>27</sup>.

<sup>25</sup> Охунув Н. Топономия Кокандской группы районов: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1978. – 15 с.

<sup>26</sup> Во‘taylorova G. Angor tumani onomastikasining sistem-struktur xususiyatlari. Magistrlik diss. Termiz, 2023. -68 b.

<sup>27</sup> Мурзаев Э М. Очерки топонимики. – Москва: Мысль, 1974. – 97 с.

Shuni ta'kidlash lozimki, geografik atamalar lingvistik jihatdan bo'shliq makon tushunchasini anglatadi, toponimik jihatdan aniq obyektning belgilanmaydi. Ular faqat kontekstda ma'lum joy nomiga aylanishi mumkin. Masalan, qishloq, ovul, ko'l, soy umumiy tushunchalarni ifodalaydi, lekin ma'lum bir joyga bog'lanmagan. Ularni aniq toponimga aylantirishda sifat yuklamali komponentlar muhim bo'lib, masalan, Qoratepa, Saribel, Sariqiya, Yangibozor, Yangiovul, Yangiyer kabi nomlar hududiy tavsifni beradi. Toponimlar, asosan, ikki komponentli iboralardan shakllanib, tizimning qadimiyligidan dalolat beradi. Yangi toponimlarning bir qismi esa migratsiya natijasida, eski joy nomlarining yangi makonlarga moslashtirilishi orqali vujudga kelgan bo'lib, bu holat geografik nomlarning dinamik tabiatini aks ettiradi.

Murakkab geografik nomlarning shakllanishi ma'lumki, turli sintaktik konstruksiyalarni toponimlashtirish orqali sodir bo'lgan. Hududning qo'shma toponimlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bu nomlar atributiv, izafetik va predikativ aloqa asosida paydo bo'lgan. Masalan: *Qorabuloq, Oqsu, Oqtepa, Qoratepa, Qirqkapa (Qirq loy uylar), Qizilqum, Oqqum, Do'ngqishloq; Ilyasning belgisi, Xan Sharbag', Shadmanquduq, Shansharbayquduq, Turdimuratning to'lderi; Aliyarqashg'an, Tuyao'lgan, Mambetqazg'on, Tuyatortar* va b.

Bobning to'rtinchi fasli "*Qizilqum hududi toponimlari tarkibiy tuzilishida rang-tus ifodalovchi sifatlar*" deb nomlangan. Qizilqum hududi toponimlarida rang-tus belgisini aks ettiruvchi ko'plab geografik nomlar mavjudligi aniqlangan. Turli ranglar va ularning mifologik, falsafiy hamda e'tiqodiy mazmuni mahalliy turkiy aholi hayotida muhim o'rin tutgan. Tarixiy manbalar va etnografik adabiyotlarda ranglarning turkiy xalqlarda ramziy ma'nolari qayd etilgan. Bu haqda K.Shoniyozov shunday yozadi: "Qadimgi davrlarda Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalar shimol, janub, sharq, g'arbni ranglar nomi bilan ataganlar. Qora rang shimolni, qizil rang janubni, ko'k rang sharqni, oq rang g'arbni, sariq rang markazni bildirgan. Ma'lum bir qabila ittifoqida bo'lgan kishilarning tomonlarga qarab joylashishi odat tusiga kirib, vaqt o'tishi bilan tomonlarning nomlari (rang nomlari) etnonim bo'lib qolgan"<sup>28</sup>. Ushbu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, kishilar qadimda o'z makonlarini hamda tomonlarni aniqlash maqsadida ranglardan keng foydalanganlar.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilshunosligi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, tur va rang nomlari faqat nominativ ma'no bilangina cheklanmay, balki xalq dunyoqarashi, an'analari va turmush tarzi bilan bog'liq qo'shimcha semantik xususiyatlarga ham ega. Bu leksik birliklar ramziy va madaniy-hissiy ma'nolarni ham ifodalaydi. Shunga qaramay, turkiy tillarda tur va rang nomlarining shaxs-ma'no xususiyatlarini chuqur yorituvchi tadqiqotlar hali yetarli emas.

B.Kilichevning ta'biricha, "Ushbu qismda toponimlar tarkibida qo'llanadigan oq, qora, qizil kabi lug'aviy birliklar va ularning semantikasi, etimologiyasi"<sup>29</sup> to'g'risida fikr yuritimiz.

<sup>28</sup> Эргашев А. Ўзқаддош этнотопонимлар тадқиқи. /Илмий хабарнома АДУ, №3, 2011. – 94 б.

<sup>29</sup> В.Килчев. Ко'рсатилган манба. – 52 б.

*Oq rang-tus ifodalovchi sifatlar ishtirokidagi toponimlar.* Tadqiq etilgan hudud toponimiyasida “oq” belgisi bilan ifodalanadigan joy nomlari birqancha ko‘p uchraydi. Jumladan, Oqtov (Tomdi t.), Oqbo‘get (Konimex t.), Oqtoshli (Konimex t.), Oqtaqir (Tomdi t.), Oqsoy (Konimex t.), Oqbaytal (Tomdi t.) Oqtepa (Konimex t., Tomdi t.), Oqbo‘ta (Tomdi t.), Oqquduq (Tomdi t.), va boshqalar.

*Qora so‘zli rang ifodalovchi sifatlar ishtirokidagi toponimlar.* Navoiy viloyatining Qizilqum hududida “qora” komponenti asosida shakllangan turli toponimik birliklar uchraydi. Masalan, *Qoraqiya, Qorabo‘riyoynaq, Qotatov, Qoratepa* (Konimex tum.); *Qoraquduq, Qoratoqa quduq* (Tomdi tum.) kabi toponimlarni keltirishimiz mumkin.

*Qizil rang-tus ifodalovchi sifatlar ishtirokidagi toponimlar.* Qizileshik (Konimex t.), Qiziltom (Tomdi t.), Qizilcha (Nurota t.), Qizilqoq (Konimex t.), Qizilquduq (Konimex t.), Qiziluy (Tomdi t.), Qizilo‘y qudug‘i (Konimex t.), Qiziljaldi (Konimex t.), Qiziltov (Tomdi t.), Qizilbuloq (Tomdi t.), Qiziljar (Tomdi t.), Qizil ungir (Tomdi t.) va boshqalar.

Qizilqum hududida toponimlarda rang-tus ifodalovchi sifatlar tez-tez uchrashini kuzatamiz. Masalan, “qo‘ng‘ir” – o‘simliklar bilan zich qoplangan qiradirlilikni bildiradi; “Qong‘irtepa” – “jigarrang tepalik”. Rangli sifatlar oronimlarda ham faol: “Bo‘zrov” (bo‘z - kulrang), “Ko‘ktepa”, “Ko‘kcha” (ko‘k - yashil), “Sarjal” (sariq). Shuningdek, “jal” komponenti “yol” ma’nosida tog‘ va tepaliklarni belgilashda ishlatiladi; masalan, Sarjal – Navoiy-Zarafshon avtotrassasi yonidagi tepaliklar.

“Toponimlar tarkibidagi turli so‘zlar doim ham o‘z asl ma’nosida qo‘llana bermaydi. Sifat, rang-tus ifodalovchi birliklar kamdan-kam holatlarda o‘z asl denotativ ma’nosida uchraydi. Oq, qora, qizil, qong‘ir, sariq, ko‘k komponentli toponimlarning katta qismida rang-tus ma’nosi bilan aloqador bo‘lmagan ma’nolar ifodalangan”<sup>30</sup>. Qizilqum hududidagi rang-tus bildiruvchi toponimlar tabiiy-geografik xususiyatlar, geologik tuzilish hamda etno-madaniy omillar asosida shakllangan bo‘lib, ular hududiy o‘ziga xoslikni va ranglarning xalq tilidagi ramziy hamda amaliy ma’nolarini aks ettiradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Qizilqum hududi toponimik tizimida toponim shakllanishining umumturkiy modeli”** deb nomlangan. Bobning *“Toponim yaratilish umumturkiy modelining o‘ziga xos xususiyatlari”* nomli birinchi faslida har bir geografik mintaqaning toponimik tizimi o‘ziga xos tuzilma, shakllanish mexanizmi va funksional xususiyatlarga ega bo‘lib, topoyaratilish jarayoni umumturkiy model doirasida shakllansa-da, har bir hududning o‘ziga xos etnik-me’moriy namunasini aks ettiradi. O‘zbek tilining etnik modeliga geografik obyektlarni belgilashda til unsurlarining ajoyib bog‘liqligi xos.

E.Begmatovning ta’rificha, “turkiy so‘zlarning aksariyati qarindosh tillar uchun mushtarak ekanligi ma’lum. Shuning uchun bo‘lsa kerak, asl turkiy so‘zlar umumturkiy leksika, umumturkiy qatlam birikmalari nomi ostida tahlil qilinadi”<sup>31</sup>.

<sup>30</sup> B.Kilichev. Ko‘rsatilgan manba. –58 b.

<sup>31</sup> Begmatov Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985. – 53 б.

Xalq tafakkuri geografik obyektlarning o'ziga xos xususiyatlarini ilg'ab, ularga majoziy ma'nodagi nomlar berish orqali ifodalanadi. Bunday semantik nomlar toponimiyada keng tarqalgan bo'lib, ilmiy adabiyotlarda metaforik toponimlar deb yuritiladi. "Metafora" (yunoncha – "siljish, o'xshatish") atamasi obyektlarning tashqi ko'rinishi yoki boshqa belgilari asosidagi o'xshatishni bildiradi. Geografik nomlashda bu usul tabiat va landshaft xususiyatlarini inson idroki orqali talqin etishda muhim ahamiyatga ega. O'zbek toponimlarida xalq og'zaki ijodidagi geografik terminlar, xususan, inson tanasiga oid atamalar asos bo'lgan. Bu toponimlar tarixiy va etnolingvistik omillarni aks ettirib, tizimning semantik va madaniy xususiyatlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Masalan: Masalan: kindik (Kindiktepa, Sirdaryo viloyati), emshek "ko'krak" (Janubiy Qozog'iston viloyati Qizemshek), burun (Navoiy viloyati Muruntov).

Qozoq va o'zbek tillarida shakllangan toponimik tizimning o'ziga xos jihatlari turli tillar ta'sirida rivojlangan bo'lsa-da, ularning umumturkiy toponimiya bilan mushtarak xususiyatlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin.

O'zbek va qozoq tillarining umumturkiy toponimik tizimining etnik modeliga xos jihatlari:

1) geografik obyektlarni nomlash jarayonida til birliklarining xilma-xilligidan foydalanish;

2) qishloq va ovullarni urug'-qabila etnonimlari asosida nomlash (ayniqsa, ma'lum hududlarda yashovchi aholi va ularning mavsumiy o'tloqlarga bog'liqligi);

3) o'zbek va qozoq tillarining toponimik tizimlarida etnotoponimlarning keng tarqalganligi;

4) geografik obyektlarni nomlashda rang ifodalovchi sifatlarning faol qo'llanilishi;

5) geografik nomlar shakllanishida ijobiy ma'nodagi unsurlarni ustuvorlashtirish;

6) ayrim geografik obyektlarning nomlanishida salbiy konnotatsiyalarning aks etishi;

7) toponimik tizimda kalkalash hodisasining mavjudligi;

8) geografik obyektlarni nomlash jarayonida metaforalarning keng qo'llanilishi;

9) metaforik nomlashda inson anatomik terminlaridan foydalanish;

10) aholi punktlari nomlarini shakllantirishda antroponimlar kechroq paydo bo'lib, xorijiy va xalqaro nomlarning majburiy o'rnatilishi natijasida shakllanishi;

11) O'rta Osiyoda mustamlaka davrida chor hokimiyati tomonidan geografik obyektlarni o'ziga xizmat qilgan shaxslar yoki ularning qarindoshlari nomi bilan atash amaliyoti joriy etilgan bo'lib, mahalliy aholining ongiga mustamlakachi hukmdorlarning buyukligi singdirilgan. Natijada, mustamlakachilikni aks ettiruvchi antropotoponimlar shakllangan;

12) chor hokimiyati o'rnida sho'ro tuzumining o'rnatilishi davrida toponimiyani mafkuralashtirish yanada katta miqyosni qamrab oladi, antropotoponimlar (kommunistik harakat arboblarning nomlari) ommaviy ravishda paydo bo'lib, chor tuzumi faoliyatini chegaralaydi.

Bobning ikkinchi fasli “*Qizilqum hududi toponimlari yaralishi jarayonida xalqona geografik atamaları qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyati*” deb nomlanadi. Qizilqum toponimlari nafaqat geografik obyektlar nomlanish tizimi, balki xalqning tarixiy xotirasi va madaniy merosining lingvistik ifodasidir. Bu hududdagi joy nomlari mintaqaning tabiiy-geografik sharoiti va ko‘chmanchi chorvachilik madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Ularning tarkibida umumturkiy xalq geografik atamaları keng qo‘llanilgan bo‘lib, bu toponimik tizimni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Qizilqum toponimlari turkiy xalqlarning tarixiy-madaniy taraqqiyotini yoritishda va toponimik tadqiqotlarni boyitishda muhim manba hisoblanadi.

Tadqiq etilayotgan hududning toponimlari tarkibida xalq geografik atamaları mavjudligi: qo‘m (qum), tog‘ (tau), buloq (bulaq), ko‘l (kul), soy (say), ariq (ariq), quduq (qudiq), irmoq (suat), daryo (o‘zen), kechuv (keshu) va boshqalar o‘z ifodasini topgan.

Qizilqum hududining toponimik tizimida umumturkiy xalq geografik atamaları, ayniqsa, “qum” komponenti keng qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Bu holat hududning tabiiy-geografik xususiyatlari va tarixiy nomlash an‘analarining uzviy bog‘liqligini namoyon etadi. Bu atama Qizilqum geonim tarkibida uchraydi, asl ma‘nosi “qizil qumlar”. Ot ikki tarkibli: qizil (sifat) + qum (ot); xalq geografik atamasi. Fonetik variantlarda turkiy toponimlar tarkibida keng namoyon etilgan, qipchoq shevalarda qum, og‘uz shevalarda – gum. Qizilqumdagi Mingbuloq chuqurligida Moyinqum va Yomonqum toponimlari ham uchraydi.

Qizilqum hududida xalq geografik atamalarining shakllanishi jarayonida muhim kuzatuvlardan biri – “achchiq” birliklarining mavjudligidir. *Achchiq, sho‘rxok, sho‘r* kabi xalq geografik atamaları asosida hududning tabiiy xususiyatlarini aks ettiruvchi toponimlar shakllangan. Bu atamalar ishtirokida Beshachchiq, Yomonachchiq kabi yirik toponimik qator vujudga kelib, ularning shakllanishi hududning geokimyoviy xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Demak, Qizilqum hududining o‘ttiz to‘rtta gidronimlar tarkibidagi maxsus adabiyotlarda ko‘rib chiqilmagan *achchiq* xalq geografik atamasini (bu yerda ichishga yaramaydigan, sho‘rxok, sho‘r suv manbayi ma‘nosida) aniqladik va birinchi bor tasvirlab berdik.

Bobning “*Qizilqum hududi arealida umumturkiy etnotoponimlari nomlanishi xususiyatlari*” nomli uchinchi faslida hudud etnotoponimlar o‘zining til xususiyati, hozirgi kunga qadar shakllanish davri va ma‘lum urug‘ yoki qabilaga mansubligiga ko‘ra tarqalishi, areal kartalar, areal tahliliy ma‘lumotlar asosida yoritildi.

O‘zbek va qozoq etnonimiyasi umumturkiy xalqlar etnik tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ushbu xalqlarning urug‘-qabila nomlari turkiy dunyoning turli hududlarida uchrash hollari bilan ajralib turadi. Ma‘lum bir urug‘ va qabila nomlarining geografik taqsimotini areal-lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish esa o‘zbek etnonimlari va etnotoponimlarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Shu jihatdan, etnotoponimlarning tarixiy, tadrijiy va subordinativ asoslari ularning shakllanish qonuniyatlarini belgilaydi.

Qizilqum mintaqasi etnotoponimlari orasida qozoq va o'zbek urug'lariga oid joy nomlari (masalan, Arg'in, Jaloyir, Qangli, Do'rmon, Qipchoq, Qatag'an, Mang'it, Kenagas, Saroy, Nayman, Ayronchi, Uyrot, Urgenji va boshqalar) keng tarqalgan bo'lib, bu toponimlar respublika bo'ylab uchraydi. Ushbu mintaqaning tarixi, madaniyati va lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish tilshunoslik, tarix, etnografiya va geografiya fanlari nuqtayi nazaridan dolzarbdir. Qizilqum toponimiyasining tahlili esa hali to'liq o'rganilmagan muammolarni yoritishda muhim vosita bo'lib, geografik nomlar orqali hududning tabiiy, ijtimoiy va etnik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Geografik nomlar hududning tabiiy, madaniy, tarixiy va etnik xususiyatlarini aks ettiradi. Ularning kelib chiqishi va semantik qatlamlarini tahlil qilish esa mintaqaning rivojlanish tarixi va tarkibiy xususiyatlarini aniqlashda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

## XULOSA

1. Toponimikaning tadqiqi til tizimi rivoji bilan birga hududning tarixi, geografiyasi, etnografiyasi va tabiiy sharoitlarini o'rganish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Toponimik birliklar tilshunoslikda xalq madaniy merosi va tarixiy xotirasining semantik ko'rinishlari sifatida chuqur tahlil qilinadi.

2. Toponimlarni o'rganishda an'anaviy yondashuvlar bilan birga zamonaviy lingvistik metodlar, xususan, semiotik va lingvopsixologik tahlil usullari qo'llanilishi muhimdir. Bu usullar toponimlarning shakllanish jarayonini va ularning tarixiy-madaniy kontekstini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shunday qilib, toponimik tadqiqotlar til hodisasi bilan birga ijtimoiy ong va jamoaviy xotiraning lingvistik ifodasi sifatida ham tadqiq etilishi zarur.

3. Qizilqum hududidagi toponimlarning shakllanishida o'zbek etnik guruhining urug' nomlari va antroponimlar muhim rol o'ynagan, bu etnotoponimlarning keng tarqalganligini ko'rsatadi. Antroponimik toponimlar, asosan, ovullar, qabristonlar va avliyo qadamjoylari nomlarida qo'llanilgan. Shunday qilib, Qizilqum toponimik tizimi inson va makon o'rtasidagi tarixiy-madaniy bog'liqlikni aks ettiruvchi lingvistik xotira sifatida namoyon bo'lgan.

4. Qizilqum mikrotoponimiyasida toponimlarning boshqa nom shakliga o'tishi - transonimizatsiya jarayoni - hududga xos hodisa bo'lib, geografik obyektlar o'zaro bog'liqligi va nomlash tizimidagi dinamikani aks ettiradi. Bu jarayon toponimik tizim rivojida uzviylik va tarixiy qatlamlar uzluksizligini ta'minlovchi muhim lingvistik mexanizm sifatida namoyon bo'lgan.

5. Joy nomlarini nomlashda motiv bo'lgan barcha belgi-xususiyatlar atributiv, izafetik va predikativ tavsifga ega bo'lib, o'zi ifodalayotgan obyektini aniqlaydi va boshqalaridan farqlashda toponimik tizimning identifikatsiya va tasniflash jarayonlarida markaziy lingvistik funksiyani bajaradi.

6. Qizilqum toponimlarida onomastik konversiya va kompozitsion usullar ustun, affiksatsiya kamroq, lekin -li, -chi, -kor, -kash, -paz, -obod kabi qo'shimchalar semantik kengayishga xizmat qiladi va affiksatsiya orqali shakllangan toponimlar til tizimida hududiy xususiyatlarni lingvistik kodlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

7. Hududiy toponimlarning shakllanish jarayonida toponimik aniqlagichlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular joy nomlarining ma’no doirasini belgilashga xizmat qilgan. Ushbu aniqlagichlarning eng xarakterli turlari orasida oykonimik (ovul, rabot), gidronimik (quduq, buloq, soy) va oronimik (tog‘, tepa, bel) birliklar alohida ajralib turadi. Demak, toponimik aniqlagichlar nafaqat geografik obyektlarning tasniflanishiga, balki ularning mintaqaviy xususiyatlarini aks ettiruvchi lingvistik indikator sifatida hududiy toponimik qatlamni strukturaviy jihatdan tavsiflashga imkon yaratadi.

8. Hududiy toponimlarning etimologik tahlili ularning o‘zbek toponimiyasida etnik tarkib, kasb, tabiiy muhit, flora-fauna va relyef bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Toponimlar nafaqat joy nomlari, balki xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti va geografik sharoitlarining lingvistik aksidir. Ular toponimik tizimni chuqur o‘rganish va hududiy identifikatsiyani aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

9. Qizilqum toponimlari ming yillar davomida bu hududda yashagan xalqning madaniy va ma’naviy merosini ifodalaydi. Ular tarixiy xotira sifatida avloddan-avlodga o‘tib, milliy lingvistik boylikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Jamlangan toponimik materiallar esa kelgusida O‘zbekiston toponimiyasining izohli va etimologik lug‘atini yaratishda fonetik, semantik va tarixiy qatlamlarni qamrab oluvchi muhim konseptual baza sifatida e’tirof etiladi.

10. Qizilqum hududi mikrotoponimiyasi etnomuloqot zonasi bo‘lib, undagi joy nomlarining aksariyati qozoq tiliga mansubdir. Bu toponimlar, ayniqsa, Qozog‘iston bilan chegaradosh cho‘l hududlarda keng tarqalgan bo‘lib, ko‘chmanchi madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Shu sababli, hudud toponimiyalari nafaqat geografik hodisa, balki xalq tili, urf-odatlar va tarixiy tajribasini lingvistik ifodalovchi muhim manba sifatida etnolingvistik va transchegaraviy tadqiqotlar uchun ishonchli ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

11. Qizilqum hududi toponimlarini tahlil qilish o‘zbek toponimiyasini yangi dalillar bilan boyitadi va lingvistik-hududiy tadqiqotlar uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, Navoiy viloyati toponimik xaritasini tuzishda bu ma’lumotlar geotilshunoslik asoslarini chuqur o‘rganishga xizmat qiladi. Qizilqum toponimlari esa tarixiy-madaniy meros bo‘lishi bilan birga, mintaqaviy geolingvistik tadqiqotlar uchun tarixiy-dinamik til manzarasini tiklash va hududiy til o‘zgarishlarini izchil tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan konseptual asosni shakllantiradi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES  
PhD.03/04.06.2020.FIL.113.02 AT THE JIZZAKH STATE PEDAGOGICAL  
UNIVERSITY**

---

**THE NAVOI STATE UNIVERSITY**

**BERDIMURATOVA LAZZAT DUISENOVNA**

**HISTORICAL-LINGUISTIC RESEARCH OF TOPONIMS OF THE  
KYZYLKUM REGION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**10.00.01 – Uzbek language**

**DISSERTATION ABSTRACT  
OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHILOLOGICAL SCIENCES**

**Jizzakh – 2025**

The theme of the Dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under the number B2022.4.PhD/Fil2814.

The dissertation was completed at the Navoi State University  
The abstract of the dissertation is posted in three languages (uzbek, english, russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.jdpu.uz) and and the information and educational portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz)

**Scientific supervisor:** **Mingbaev Nurlan Jakipovich**  
Doctor of philological sciences, professor

**Official opponents:** **Turovov Abdurahim Malikovich**  
Doctor of Philological Sciences, Professor

**Temirov Sherali Abdukhalilovich**  
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences,  
Associate Professor

**Leading organization:** **Bukhara State University**

The defense of the Dissertation will take place on « 29 » noyabr 2025, at 12<sup>00</sup> at the meeting of Scientific Council PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 awarding scientific degrees at Jizzakh State Pedagogical University (Address: 130100, Jizzakh, str. Sh.Rashidov, 4. Tel: (872) 226-13-57; fax: (872) 226-46-56; e-mail: jspi info@umail.uz, The main building of Jizzakh State Pedagogical University, 2<sup>nd</sup> Floor, Meeting Hall).

The Dissertation can be reviewed at the Information Resource Centre of Jizzakh State Pedagogical University (Address: 130100, Jizzakh, str. Sh.Rashidov, 4. Tel: (872) 226-13-57; fax: (872) 226-46-56).

The Abstract of the Dissertation was distributed on « 17 » noyabr 2025.  
(Mailing report № 21 on « 17 » noyabr 2025).

  
U.A. Jumanazarov  
Chairman of the Scientific Council for the awarding of scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, professor

N.N. Xadjimusayeva  
Scientific Secretary of the Scientific Council for the awarding of scientific degrees, Doctor of Philological (PhD), Associate Professor

U. Kasimov  
Chairman of the Scientific seminar at the Academic Council on awarding degrees, Doctor of Philological sciences, professor

## INTRODUCTION (abstract of the (PhD) dissertation)

**Topicality and necessity of the thesis.** Toponym research in world science is considered a linguistic unit carrying unique, rich historical, national-cultural, and social information from linguistics, geography, history, ethnography, sociology, and linguocultural sciences. Important research has been conducted in the field of toponymy, focusing on the lexical meanings, naming, formation, and structural features of various types of toponyms, including polysonyms, commononyms, hydronyms, and agronyms, along with the collected experiences of onomastics. Today's globalization and integration of sciences, and collecting of all types of toponymic units and considering them in nominative-motivational, etymological, structural, areal, comparative-historical, typological-classification, sociolinguistic, lingua-cultural aspects are becoming an urgent issue of onomastics.

Today's development of toponymy in the world is being researched in historical, linguistic, and modern aspects at both the macro and microtoponymic scales, which are little studied. Linguists repeatedly emphasize that studying the components of toponyms, such as oikonym, hydronym, oronym, based on linguistic paradigms, is important in illuminating the social life, national, ethnic, and cultural historical development of the people. The study of toponyms examines the development and linguistic improvement of the language and its toponymic system, including oronymy, the relationship of toponyms with other toponymic units, dialect, geography, history, ethnography, geodesy, flora, and fauna of the area to which they belong, the nature of mountain tourism and other learning opportunities become relevant.

In recent years, our country has prioritized the creation of new research based on modern linguistic development and scientific paradigms. This aims for the consistent and effective implementation of language, particularly in toponymic policy, which is an important factor in our nation's development. After all, "we must study the ancient and rich history of our country, strengthen scientific research work in this direction, and fully support the work of scientists in the field of humanities."<sup>32</sup> It is essential to conduct research on the historical-linguistic, nominative-motivational, etymological, and derivational features of the toponyms in the Kyzylkum region of Navoi. This research will help enrich Uzbek toponymy with scientific and theoretical perspectives and practical interpretations.

The scientific results of this dissertation serve to a certain extent in the implementation of tasks defined in other regulatory legal documents related to this activity such as the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-2909 of April 20, 2017 "On measures to further develop the higher education system", No. PD-3160 of July 28, 2017 "Spiritual decisions on increasing the efficiency of educational work and raising the development of the field to a new level; No. PF-5850 dated October 21, 2019 "On measures to fundamentally increase the prestige and position of the Uzbek language as a state language", No. PF-6084 dated October 20, 2020 "Uzbek in our country on measures to further develop the language and improve the language policy", No. PF-6097 dated

---

<sup>32</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 22.

October 29, 2020 “On approval of the concept of science development until 2030”, October 12, Decree No. PF-158 of September 12, 2023 “On Uzbekistan - 2030 Strategy”.

**The accordance of research with the priorities of the development of science and technology of the Republic.** The dissertation research was carried out in accordance with the priority direction of the republican scientific and technical development “In the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and a democratic state, the formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation.”

**The extent of study of the problem.** In global linguistics, the scholarly investigations of researchers such as H.A. Smith, A.L. Dauzat, G.J. Copley, G.V. Le Men, and V. Pisani have played a foundational role in the establishment of toponymy as an independent discipline. Their research provided significant theoretical and methodological foundations, contributing greatly to the development of the principles of toponymic studies and paving the way for the scientific advancement of the field.

Interest in toponymic research began to emerge in Russian science in the 19th century, as reflected in the works of V.A. Vostokov, N.N. Nadezhdina, V.V. Radlov, N.Y. Danilevsky, Y.K. Grot, and others. In the early years of the former Soviet Union, this interest led to the appearance of influential works by A.I. Sobolevsky, V.P. Semenov-Tyan-Shansky, V.B. Shostakovich, P.L. Mashtakova, N.Ya. Marr, and A.M. Selishev. After World War II, major works were published that provided historical and toponymic descriptions. During this period, toponymy was shaped as a scientific field, with its research methods defined and theoretical issues developed.

The works of these scholars also served as the foundation for a number of studies in Turkic toponymy. Notable among them are the contributions of Sh.K. Konkashbayev, A.A. Abdurakhmanov, S. Ataniyazov, Sh.I. Yuzbashev, S.M. Mollazade, and S. Umurzakov, whose research is particularly noteworthy in this area.

In Uzbekistan, the analysis of onomastic units based on historical-linguistic, lexical-semantic, ethnogeographic, sociopragmatic, and linguocultural criteria has become a relevant scientific direction. The formation, functional-semantic development, and usage of toponyms are being thoroughly studied through paradigmatic and syntagmatic approaches. Significant research in the field of toponymy has been carried out at the intersection of linguistics, history, and geography during the second half of the 20th century and the independence period. This has laid the foundation for the formation of a national school of toponymy and the continuation of systematic research.

In particular, invaluable contributions have been made to the development of the theoretical foundations of Uzbek toponymy by leading scholars such as E. Begmatov, T. Nafasov, Sh. Qodirova, Y. Khujamberdiev, O.S. Gubaeva, T. Rakhmatov, J. Latipov, N. Okhunov, Q. Khurramov, L. Karimova, S.N. Nayimov, Z. Dusimov, Kh. Khulmuminov, B. Urinbaev, A. Muhammadjanov, A. Otajanova, T.D. Enazarov, S.N. Akhmedov, Sh.A. Temirov, I. Khalmuratov, N. Ganiev, U. Turdimuradov, and others.

Special attention has been given to the formation of theoretical principles in toponymy, deepening of historical-linguistic and linguo-onomastic analyses, and the development of linguocultural and etymological studies. The scientific articles, monographs, and dissertations produced in this direction play a crucial role in strengthening the theoretical and methodological foundations of the field.<sup>33</sup>

**The connection of the research with the research work of the research institution where the dissertation was completed.** This dissertation has been conducted in accordance with the scientific research direction of Navoi State University titled “Functional-pragmatic and semantic-stylistic analysis of Uzbek language units (in synchronic and diachronic aspects).”

**The purpose of the research.** The aim is to describe and study the system of onomastic units in the Kyzylkum region, specifically focusing on identifying the region’s common Turkic toponyms.

**The tasks of the research:**

To conduct a comprehensive study of the toponymic units of the Kyzylkum region, develop their overall system, define their lexical-semantic classification, and identify their grammatical structures and structural models;

